



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> October - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### RAQAMLI VA IJTIMOIY MEDIA FAOLLIK ORQALI YOSHLARNING

#### SIYOSIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH

Axmadaliyev Xudayberdi Ummataliyevich,

ADPI tadqiqotchisi

Raqamli media faolligi - bu internet va raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan ijtimoiy va siyosiy harakatlardir. Fuqarolar o‘z fikrlarini ifoda etish, ma’lumotlarni tarqatish va turli ijtimoiy masalalarga e’tibor qaratish uchun raqamli platformalarni (masalan, veb-saytlar, bloglar) ishlatadilar.

Raqamli media faolligining asosiy xususiyatlari.

- Ovoz berish va ta’sir ko‘rsatish:** Fuqarolar o‘z fikrlarini va talablarini onlayn platformalar orqali keng auditoriyaga yetkazishlari mumkin.
- Tezkor axborot tarqatish:** Raqamli media tezkor va keng qamrovli axborot tarqatishga imkon beradi.
- Yetkazib berish imkoniyatlari:** Mobil qurilmalar orqali raqamli media faolligi yanada qulaylashadi va ko‘proq odamlarni jalg qiladi.

Ijtimoiy media faolligi - bu ijtimoiy tarmoqlar (masalan, Facebook, Twitter, Instagram) orqali amalga oshiriladigan faoliyatlar. U foydalanuvchilarga bir-birlari bilan muloqot qilish, ma'lumotlar almashish va jamoatchilikni jalg etish imkoniyatini beradi.

Ijtimoiy media faolligining asosiy xususiyatlari.

- Jamoatchilik aloqalari:** Ijtimoiy tarmoqlar fuqarolarni birlashtiradi va fikr almashish uchun platforma yaratadi.
- Keng qamrovli ta’sir:** Ijtimoiy media orqali ma'lumotlar bir necha soniya ichida millionlab foydalanuvchilarga yetkazilishi mumkin.
- Harakatlarni tashkillashtirish:** Ijtimoiy media, ijtimoiy harakatlar va norozilik aksiyalari tashkillashtirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Raqamli va ijtimoiy media faolligi, zamonaviy jamiyatda muhim rol o‘ynaydi. Ular fuqarolarni birlashtiradi, ularning ovozlarini eshitishga yordam beradi va ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, ushbu platformalarning imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish va axborotning to‘g‘riligini ta‘minlash muhimdir. “Fuqarolar raqamli va ijtimoiy media vositalaridan samarali foydalaniib, ijtimoiy va siyosiy masalalarda o‘z ta’sirini oshirishlari zarur. Yosh avlod vakillari fikriga ko‘ra, vatanparvarlik «Vatanga muhabbat va iftixor», «mamlakatning buyuk kelajagi yo‘lida kurash», «xalqimiz tarixi, madaniyati va



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> October - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

milliy an'analarini bilish va hurmat qilish»da namoyon bo'ladi<sup>1</sup>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvar kuni qabul qilingan «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi PF-5618-son Farmoni ham yoshlarimizni huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim hujjatlardan biri bo‘ldi, desak xato qilmagan bo‘lamiz. Chunki aynan mazkur hujjatda yoshlarga o‘z huquqlarini himoya qilishning amaliy mexanizmlarini o‘rgatishga qaratilgan «Street law» (Ko‘cha huquqi - oddiy huquq) loyihasini keng joriy qilish, jumladan, huquqshunoslikka ixtisoslashtirilgan oliy ta’lim muassasalari talabalari, yuridik kollejlar o‘quvchilari, nodavlat tashkilotlar vakillaridan iborat ko‘ngillilar (volontyor) guruhini shakllantirish muhim vazifa sifatida belgilab berildi, oliy ta’lim muassasalari talaba-yoshlari o‘rtasida «Huquq bilimdonlari» ko‘rik-tanlovini tashkil qilish va tanlov g‘oliblarini rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratildi.<sup>2</sup>

“Jamiyatda yoshlarning siyosiy madaniyatini shakllantirish jarayonining samarali tashkil etilishi milliy g‘oyaning amalda ro‘yobga chiqishini ta’minlaydi. Milliy g‘oya jamiyat siyosiy tizimining yosh avlod vakillari tomonidan idrok etilishi va ularning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy hamda ma’naviy hayotning faol a’zosiga aylanishiga zamin yaratadi. Mamlakatimizni yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish yo‘nalishida jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish vazifasi qo‘yilgan”.<sup>3</sup> “2016-yil 28-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni e’lon qilindi. Unga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, shuningdek, har bir tuman va shaharda (tumanga bo‘ysunuvchi shaharlardan tashqari) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual

<sup>1</sup> «Ijtimoiy fikr» respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi materiallari.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda xuquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni // URL - <http://lex.uz/docs/4149765>

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida Farmoni. PF-4947



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> October - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qabulxonalari tashkil etildi. Qabulxonalar ishi natijasi asosida fuqarolarning turli sohalardagi byurokratik to'siqlarga duch kelishi, qonunga zid bo'lgan ko'plab idoraviy yo'riqnomalarni bekor qilish, optimal bo'lgan bank kreditlari ajratish, tadbirdorlik bo'yicha noqonuniy tekshirishlarga barham berish haqida, huquqtartibot idoralarining faoliyatini tubdan o'zgartirishga doir ishlar amalga oshirildi"<sup>4</sup>. Raqamli faollikning qiyinchiliklari: Raqamli faollik, zamonaviy jamiyatda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, bir qancha qiyinchiliklar bilan yuzma-yuz kelishi mumkin. Raqamli platformalarda tezda tarqatiladigan noto'g'ri yoki yolg'on ma'lumotlar, odamlarning fikrlarini chalg'itishi va qaror qabul qilishda xato qilishlariga olib kelishi mumkin. Raqamli platformalar orqali faol bo'lish uchun texnologiyalar va platformalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini o'zlashtirish zarur. Har bir fuqaro raqamli vositalarga teng kirish imkoniyatiga ega emas, bu esa faollikda tengsizlik keltirib chiqaradi. Raqamli faollik zamonaviy jamiyatda muhim rol o'ynasa-da, u bir qancha qiyinchiliklar va muammolar bilan ham yuzma-yuz keladi. Misinformatsiya, texnologik cheklovlar, xavfsizlik muammolari va shaxsiy izolyatsiya kabi omillar, raqamli faollikni samarali amalga oshirishda to'sqinlik qilishi mumkin. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun ta'lim, shaffoflik va hamkorlik muhim ahamiyatga ega. "Jamiyatda aholining huquqiy, siyosiy faolligi davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtiradi. Bu haqda Birinchi Prezident Islom Karimov ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida «O'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va qobiliyatiga tayanib yashaydigan, atrofida ro'y berayotgan voqeа va hodisalarga mustaqil munosabatda bo'ladigan, shu bilan birga, o'z shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin shaxsni shakllantirish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish darkor», deb ta'kidlagan edi"<sup>5</sup>.

<sup>4</sup> Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - T.:O'zbekiston, 2017. - B.114-115.

<sup>5</sup> Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot- pirovard maqsadimizdir. T.: O'zbekiston, 2000 y. B-32